



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta’siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тадбиркорликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
То‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta’minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta’siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

CHETDAN OLIB KELINAYOTGAN TOVARLARNING BOJXONA QIYMATINI ANIQLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТАМОЖЕННОЙ СТОИМОСТИ ТОВАРОВ, ВВОЗИМЫХ ИЗ-ЗА ГРАНИЦЫ

SOME ISSUES OF IMPROVING THE DETERMINATION OF THE CUSTOMS VALUE OF GOODS IMPORTED FROM ABROAD

Pardayev To‘lqin Nasirovich

Bojxona instituti Bojxona to‘lovlari va statistikasi kafedrası professori, i.f.d.,

Alimuxamedov Shuxrat Rixsiboyevich

Bojxona instituti Bojxona to‘lovlari va statistikasi kafedrası boshlig‘i, dotsent.

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari undirishda asos sifatida foydalaniladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash xamda uni takomillashtirish bo‘yicha statistik taxlillar o‘tkazilib, bojxona rasmiylashtiruviga sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish maqsadida, xalqaro tajribalar o‘rganilib, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona qiymati, tovarni yetkazib berish sharti, bitim qiymati, asosiy usul, xarajatlar tarkibi, bojxona tizimi, tashqi savdo, erkin iqtisodiy zona, xalqaro savdo.

В статье проведен статистический анализ по определению и совершенствованию таможенной стоимости товаров, используемой в качестве основы для взимания таможенных платежей в Республике Узбекистан, изучен международный опыт, а также разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по сокращению сроков таможенного оформления.

Ключевые слова: таможенная стоимость, условия поставки товаров, цена сделки, основной метод, структура расходов, таможенная система, внешняя торговля, свободная экономическая зона, международная торговля.

The article conducts statistical analyses on determining and improving the customs value of goods used as the basis for collecting customs payments in the Republic of Uzbekistan, studies international experience, and develops scientifically based proposals and recommendations in order to reduce the time spent on customs clearance.

Keywords: customs value, terms of delivery of goods, transaction value, basic method, cost structure, customs system, foreign trade, free economic zone, international trade.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona to‘lovlari orqali tartibga solishda tovarlarning bojxona qiymati bojxona to‘lovlarni hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri aniqlash bojxona to‘lovlari to‘liq undirishga olib keladi. Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish usullaridan biri bo‘lib, u notarif usulning iqtisodiy choralariga kiradi.

Bojxona qiymatining mohiyati va ahamiyati bo‘yicha dunyoning bir qancha olimlari o‘zlarining ilmiy-tadqiqotlarini olib borgan va o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan V.Belyashev, bojxona qiymatiga quyidagicha ta‘rif beradi: “Amaliyotda bojxona qiymati deganda muayyan qo‘shimchalar va chegirmalar asosida tuzatishlar kiritilgan, shuningdek bojxona to‘lovlari undirilishi uchun yagona baza sifatida asos bo‘lgan, tovar uchun amalda to‘langan va to‘lanishi lozim bo‘lgan tovarning real qiymati tushuniladi” [1].

A.N.Kozirinning fikricha “Bojxona qiymati – bu sotuvchi va xaridor o‘rtasida qatnashuvchi uchinchi shaxs, ya’ni bojxona organi tomonidan aniqlanadigan tovarning alohida qiymati hisoblanadi” [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha, tovarlarning bojxona qiymatiga, eng umumiy tarzda, quyidagicha ta’rif berish mumkin. Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniqlanadigan va bojxona to‘lovlarini hisoblash maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatiga tovarlarning bojxona qiymati deyiladi. O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlarga bojxona qiymatini to‘g‘ri aniqlash orqali mamlakat Davlat byudjeti daromadlar qismiga pul mablag‘larni to‘liq tushishiga olib kelib, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirishi, iqtisodiyotni rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonda tovarlar tasniflanishining xalqaro birxillashtirish jarayoni bilan birgalikda tovarning bojxona qiymatini aniqlashning xalqaro tizimi ham ishlab chiqilgan. Bunday tizim 1950-yilda qabul qilingan va o‘shandan boshlab 120 dan ortiq mamlakatda amal qilinayotgan bojxona qiymati to‘g‘risidagi Bryussel Konvensiyasi bilan deyarli bir vaqtda kuchga kirdi. Bojxona qiymati — zamonaviy bojxona tarif tizimlarining g‘oyatda muhim jihati (elementi) hisoblanadi. Biroq, u shuningdek, fiskal manfaatlar yo‘lida bojni hisoblash va milliy sanoat tarmoqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish vositasi sifatida ham muhimdir. Bojxona qiymati bojxona statistikasi, litsenziyalash va kvotalash bo‘yicha kelishuvlar, tovarlar importida va preferensial tizimlardan foydalanishda undiriladigan soliqlar va aksizlar kabi tashqi savdoning muhim omillari sirasiga kiradi.

Bojxona qiymatidan foydalanish maqsadlari: a) bojxona to‘lovlarni hisoblash; b) bojxona statistikasini yuritish; v) bojxonaga oid valyuta nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotlarni to‘plash va tahlil etish; g) huquqbuzarliklar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan choralarning qo‘llanilishi uchun real bazani aniqlash; d) bojxonaga doir boshqa maqsadlarda tovarlar qiymatini belgilashdan iborat.

Hozirgi paytda amaliyotda tovarlar bojxona qiymatini aniqlashning 6 ta usuli mavjud bo‘lib, ular: a) olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo‘yicha; b) aynan bir xil tovarga doir bitimning qiymati bo‘yicha; v) o‘xshash tovarga doir bitimning qiymati bo‘yicha; g) qiymatlarni chegirib tashlash asosida; d) qiymatlarni qo‘shish asosida; e) zaxira usullari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Olib kiriladigan tovarga doir bitimning qiymati bo‘yicha bojxona qiymatini belgilash usuli asosiy usul hisoblanadi. Agar asosiy usuldan foydalanish imkoniyati bo‘lmasa, yuqorida ko‘rsatilgan usullarning keyingilari izchil tartibda, ya’ni birin-ketin qo‘llaniladi.

Rivojlangan mamlakatlarda 95,0-99,0% gacha tovarlarning bojxona qiymati 1-usulda aniqlanadi. Bu esa tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashga ketadigan vaqt sarfi kamayishiga olib kelib, bojxona tartib- taomillarini qisqartiradi va natijada bojxona chegarasidan tovarlar o‘tishining tezlashuviga olib keladi.

Tovarlarni bojxona qiymatining tarkibi – bojxona qiymatining miqdorini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar to‘plamidan iborat bo‘lib, u quyidagi formula orqali ifodalanadi:


$$BQT = A + QX - CHTX$$

Bunda, BQT – bojxona qiymati tarkibi; A – asos qilib olinadigan narx; QX – qo‘shiladigan xarajatlar yoki elementlar; CHTX – chegirib tashlanadigan xarajatlar yoki elementlar.

Masalan, bojxona qiymatini aniqlashning 1-usuli qo‘llanilganda, sotib olingan tovar narxi asos qilib olinadigan narx sifatida qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2020-2023-yillarda rasmiylashtirilgan bojxona qiymati deklaratsiyalarida qo‘llanilgan bojxona qiymatini aniqlash usullarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tovarlarni import qilishda 2021-yilda 342132 ta bojxona qiymati deklaratsiyalarida bojxona qiymatini aniqlash usullari bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yil yakuniga ko‘ra ular 595107 ta bo‘lgan. Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, tashqi savdo aylanmasi oshgani sari rasmiylashtirilayotgan bojxona yuk deklaratsiyalari soni hamda ulardagi bojxona qiymatini aniqlash usullarining soni ham yildan-yilga ortib bormoqda (navbatdagi betdagi 3.8-rasmga qarang).

Tahlillarga yuzlanadigan bo‘lsak, ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usuli deb hisoblangan 1-usul barcha aniqlangan usullarning deyarli yarmini (2021-yil– 33,69%, 2022-yil – 36,91% va 2023-yil – 61,89%) tashkil etgan va 1-usulning salmog‘i ko‘payib bormoqda. Oxirgi yillarda barcha aniqlangan usullarda 6-usul kamayib bormoqda (2021-yil – 59,15%, 2022-yil – 53,23% va 2023-yil – 16,73%). Bunga oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasida tovarlarni bojxona qiymatini aniqlash bilan bog‘liq me’yoriy-huquqiy bazani takomillashayotganligi, ulardagi bojxona qiymati bilan bog‘liq tartib-taomillarni jahon standartlari asosida o‘zgarayotganligi, bojxona qiymatini aniqlash bilan bog‘liq jarayonlarni raqamlashayotganligi kabi omillar ta’sir etgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida bojxona rasmiylashtiruv jarayonida qo‘llanilgan bojxona qiymatini BYUDlar kesimida aniqlash usullari soni, dona[3]

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash jarayonida Inkoterms xalqaro yetkazib berish shartlari ham muhim ahamiyatga ega. Inkoterms – butun dunyodagi hukumat organlari, yuridik kompaniyalar va biznes vakillari tomonidan xalqaro savdoda eng ko‘p qo‘llaniladigan atamalarning talqini sifatida e’tirof etilgan xalqaro qoidalar demakdir. Uning amal qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha taraflarning tovarlarni yetkazib berish shartlarida huquq va majburiyatlariga tatbiq etiladi. Ular xalqaro savdo shartnomalarining muhim elementi hisoblanadi.

Inkoterms nafaqat tovarlarni tashishda, balki tovarlarni bojxona qiymatini aniqlashda, bojxona statistikasini yuritishda ham muhim ahamiyatga ega. Olib kelinadigan tovarning bojxona qiymati CIF yoki CIP shartlariga mos keladi. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) CIF yoki CIP shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymati olib kirilgan tovarning shartnoma qiymatiga aynan teng bo‘ladi.

Agar yuqoridagi yetkazib berish shartlarini bazis shartlar deb hisoblasak, u holda asosiy usul bo‘yicha bojxona qiymatini aniqlashda, fikrimizcha, quyidagi formulalardan biridan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) YEXV, FCA, FAS, FOB yetkazib berish shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$TS = TS + F + S + P$$

2. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) CFR, SRT yetkazib berish shartlarida olib kirilsa, bojxona qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$TS = TS + S + P$$

Chunki ushbu yetkazib berish shartlarida asosiy tashish haqini to‘lash majburiy talab bo‘lib, u tovarning shartnoma narxiga kiritiladi.

3. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha yoki belgilangan joygacha) DAP, DDP, DPU shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$TS = TS + S$$

4. Agar tovar O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga (chegarasigacha) CIF yoki CIP shartlarida olib kirilsa, tovarning bojxona qiymati quyidagi ko‘rinishda shartnoma narxi bo‘yicha olib kirilgan tovarning shartnoma qiymatiga aynan bo‘ladi:

$$TS = TS$$

Shu o‘rinda tovarlarni yetkazib berish Ye guruh tijorat shartida xarajatlarning tarkibiga e‘tibor berish alohida ahamiyatga ega (1-jadval).

Tovarlarni yetkazib berish bo‘yicha shartlar 11 ta bo‘lib, ular 4 guruhga bo‘linadi. Bular E guruhi (yuklab jo‘natish), F guruhi (asosiy tashish haqini sotuvchi to‘lamagan), S guruhi (asosiy tashish haqini sotuvchi to‘lagan), D guruhi (yetkazib berish).

1-jadval

Tovarlarni yetkazib berish Ye guruh tijorat shartida xarajatlarning tarkibi

T/r	Xarajatlar turi	Shartli belgisi
1.	Tovar qiymati	S
2.	Fraxt bo‘yicha xarajatlar (tashish, yuklash, yukni tushirish va b.)	F
3.	Sug‘urta badali summasi (sug‘urtalash mukofoti)	S
4.	Tovarni importchi mamlakat chegarasiga qadar olib o‘tish bilan bog‘liq xarajatlar	P
5.	O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududi ichida tovarni olib o‘tish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar	R
6.	Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati	TS

FAS, FOB, CFR, CIF yetkazib berish shartlari faqat suv transportida qo‘llaniladi. Qolgan yetkazib berish shartlari barcha transport vositalarida tashishda qo‘llaniladi. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz suv havzalaridan uzoqda bo‘lganligi sababli, yuqoridagi suv transportida kelayotgan yetkazib berish shartlari bo‘yicha yuqoridagi formulalardagi xarajatlarni bojxona chegarasigacha tovarning qiymatiga qo‘shish kerakligini ko‘rsatadi. Yuqoridagi formulalardan foydalanish tovarlar bojxona qiymati noto‘g‘ri aniqlanishining oldini oladi.

Tovarlarni bojxona qiymatini aniqlashda tovar yuborgan mamlakatdan tovar haqida aniq ma‘lumotlar olish katta rol o‘ynaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2023-yilda bojxona qiymatini aniqlashning to‘g‘riligiga aniqlik kiritish maqsadida, 264 ta xalqaro so‘rov yuborilgan bo‘lib, ularning 70 tasiga javob xati olingan, xolos. Ushbu javob xatlari asosida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilaridan 3047,77 mln.so‘m qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirilgan. Unda, Turkiya – 60 ta javob xatida 1 911,81 mln.so‘m, Koreya – 5 ta javob xatida, 566,96 mln. so‘m, Xitoy – 2 ta javob xatida 540,5 mln. so‘m va Polsha – 3 ta javob xatida 28,5 mln. so‘m to‘g‘ri kelgan (2-jadval).

Ma‘lumki, iqtisodiy masalalarni matematik usullarda yechishning eng muhim talablaridan biri bu, masalaning matematik modelini qurishdan iboratdir. Har doim ham ixtiyoriy iqtisodiy masalaning matematik modelini tuzish mumkin emas. Shuning uchun ham iqtisodiy masala yoki jarayonning matematik modelini tuzish uning optimal yechimini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2023-yilda tovarlar to‘g‘risida so‘rovnoma ma‘lumot olingan davlatlar, ma‘lumotnomalar va qo‘shimcha undirilgan bojxona to‘lovlari [4]

T/r	Davlatlar	Olingan ma‘lumotnomalar soni, dona	Qo‘shimcha undirilgan bojxona to‘lovlari, mln.so‘m
1.	Turkiya	60	1911,81
2.	Koreya	5	566,96
3.	Xitoy	2	540,50
4.	Polsha	3	28,50
Jami		70	3047,77

Ma‘lumki, yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, tovarlarning bojxona qiymatini belgilash izchil tartibda qo‘llaniladigan oltita usul yordamida amalga oshiriladi. Quyida shu usullardan biri O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda “Qiymatlarni chegirib tashlash usuli, 4-usul” asosida tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning matematik modellashtirish jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Dastlab, quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

B_K - tovar birligining bojxona qiymati; C_H - O‘zbekiston Respu-blikasi hududida birinchi marta sotilganda mazkur tovar birligining qiymati bo‘lsin. U holda tovar birligining qiymati C_H dan bojxona hududida amalga oshirilgan quyidagi xarajatlar chegiriladi:

1. B_B — import bojxona boji. Bojning eng yuqori miqdori

$$B_B = 2 \cdot k \cdot B_K x$$

formulasi bilan aniqlanadi, bunda $k = \frac{B_{BC}}{100\%}$ bojxona boji koeffitsiyenti stavkasi.

2. A_C - aksiz solig‘i:

$$A_C = m \cdot B_K$$

formulasi bilan aniqlanadi, bunda m — aksiz solig‘i stavkasi koeffitsiyenti.

3. K_{KC} - qo‘shilgan qiymat solig‘i:

$$K_{KC} = n \cdot (B_K + 2 \cdot k \cdot B_K + m \cdot B_K) x$$

formulasi bo‘yicha aniqlanadi, bunda n – qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi koeffitsiyenti.

4. T_Φ - tovarni birinchi marta qayta sotishda O‘zbekiston Respublikasi hududida olinadigan tijorat foydasi:

$$T_\Phi = p \cdot (B_K + B_B + A_C + K_{KC}),$$

formulasi bo‘yicha aniqlanadi va bunda r — tijorat foydasi koeffitsiyenti.

5. T_X - O‘zbekiston Respublikasi hududidagi transport va boshqa kutilmagan xarajatlar :

$$T_X = r \cdot (B_K + B_B + A_C + K_{KC}),$$

formulasi bo‘yicha aniqlanadi va bunda r — transport xarajatlari koeffitsiyenti.

Demak, olib kiriladigan tovar birligi bojxona qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$B_K = C_H - B_B - A_C - K_{KC} - T_\Phi - T_X \quad (1)$$

Bundan,

$$C_H = B_K + B_B + A_C + K_{KC} + T_\Phi + T_X \quad (2)$$

o‘rinli. Endi (2) formulaga $B_B, A_C, K_{KC}, T_\Phi, T_X$ ma‘lumotlarining ko‘rsatkichlarini kiritamiz:

$$C_H = B_K \cdot (1 + 2 \cdot k + m) \cdot (1 + n) \cdot (1 + p + r)$$

Demak,

$$B_K = \frac{C_H}{(1+2 \cdot k+m) \cdot (1+n) \cdot (1+p+r)} \quad (3)$$

Bu formulada qulaylik uchun ushbu belgilashni kiritamiz:

$$Y_{XK1} = (1 + 2 \cdot k + m) \cdot (1 + n) \cdot (1 + p + r) x \quad (4)$$

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududida tovarning birinchi marta sotilishi narxi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda har bir tovar turi uchun uning bojxona qiymati:

$$B_K = \frac{C_H}{Y_{XK1}} \quad (5)$$

formula yordamida aniqlanar ekan.

Yuqoridagi beshinchi formulaning bojxona qiymatini aniqlashdagi qulayligi shundan iboratki, unda faqat olib kelinayotgan tovarlar uchun S_N va k, m, n, p, r - koeffitsiyentlar aniqlanib “Yexcel” dasturi yordamida natijani aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

Endi bojxona qiymatiga aniqlaydigan (5) formulaning matematik tahliliga to‘xtalamiz:

Ushbu formulada $B_K = y$ va $Y_{XK1} = x$ deb belgilashlar kiritsak,

$y = \frac{C_H}{x}$ funksiya hosil bo‘ladi. Albatta, bu funksiyada u ning qiymati x argumentning qiymatiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Shuning uchun ular orasidagi bog‘lanishni $S_N = \text{const}$ bo‘lgan holda tahlil qilaylik:

a) agar $x > \sqrt{C_H}$ bo‘lganda, $\lim_{x \rightarrow \infty} y = \lim_{x \rightarrow \infty} \frac{C_H}{x} = 0$ ekanligidan bojxona qiymatining pasayishi kuzatiladi;

b) agar $x < \sqrt{C_H}$ bo‘lganda, $\lim_{x \rightarrow 0} y = \lim_{x \rightarrow 0} \frac{C_H}{x} = \infty$ ekanligidan bojxona qiymatining oshishi kuzatiladi;

v) agar $x = \sqrt{C_H}$ bo‘lsa, $\lim_{x \rightarrow \sqrt{C_H}} y = \lim_{x \rightarrow \sqrt{C_H}} \frac{C_H}{x} = \sqrt{C_H}$ ya’ni, $y = \sqrt{C_H}$ bo‘ladi.

Ushbu natijalardan ko‘rinib turibdiki, tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda $S_N = \text{const}$ bo‘lganda, $Y_{XK1} = x = \sqrt{C_H}$ bo‘lsa, $B_K = y = \sqrt{C_H}$ bo‘lar ekan.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, $C_H = \text{const}x$ bo‘lgan holda U_{XK1} — bojxona hududida amalga oshirilgan xarajatlarning ko‘payishi bojxona qiymatini kamaytirar ekan. Aks holda, $C_H = \text{const}x$ bo‘lganda U_{XK1} — bojxona hududida amalga oshirilgan xarajatlarning kamayishi bojxona qiymatini oshib ketishiga sabab bo‘lar ekan.

Xulosa qilib aytganda, bojxona to‘lovlarini hisoblashda tovarlarni bojxona qiymati barcha bojxona to‘lovlarida asos bo‘lib xizmat qiladi. Uni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan tovarlarni bojxona qiymatini aniqlashda matematik moddellashirishdan foydalanish, xalqaro yetkazib berish shartlarini qo‘llashni takomillashtirish katta samara berishi mumkin. Bir paytning o‘zida shuni alohida qayd etish kerakki, tovarlarning bojxona qiymatini to‘g‘ri aniqlash bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish tizimida markaziy o‘rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Беляшов В.А. Таможенный энциклопедический справочник. В 2-х томах. / Под ред. И.Ю. Краснянского. Москва: Летописес, 1999. С.165
2. Козырин А. Таможенная пошлина / Москва. 1998. С.299. 2.
3. A.Shadmankulov, T.Pardayev, B.Turdiyev, Sh.Alimuxamedov, Bojxona qiymati. Darslik. T.: “Lesson-press”-2021-y.
4. T.Pardayev, A.Shadmankulov, Z.Makkamov. Bojxona to‘lovlari. Darslik. T.: Bojxona instituti — 2021-yil.
5. Pardayev T.N. O‘zbekistonda Davlat byudjeti daromdlarini shakllantirishda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, 2024-yil.
6. T.N.Pardayev. Bojxona to‘lovlari qarzdorlikning kelib chiqish sabablari va uning oldini olish choralari. (Maqola.) “Biznes-Эксперт” ilmiy jurnal 11-son 2023-yil.